



Murodillayev Sardorbek Rustamjon o'g'li

Qo'qon davlat universiteti sardorbekrustamjonovich@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Temuriylar davlatining XIV asr oxiri – XV asr boshlaridagi xalqaro aloqalari tahlil qilinadi. Amir Temur va uning vorislari davrida davlatning Yevropa (Ispaniya, Fransiya, Vizantiya), Yaqin Sharq (Usmoniylar, Mamluklar), Oltin O'rda, Mo'g'uliston hamda Xitoy (Min sulolasi) bilan o'rnatgan diplomatik, savdo-iqtisodiy va harbiy-siyosiy munosabatlari yoritilgan. Buyuk ipak yo'lining xavfsizligini ta'minlash, savdo aloqalarini rivojlantirish va mintaqaviy barqarorlikni o'rnatish borasidagi temuriy siyosatning o'ziga xos jihatlari arxiv materiallari va tarixiy manbalar asosida ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Temuriylar, Amir Temur, xalqaro aloqalar, diplomatiya, Buyuk ipak yo'li, Usmoniylar, Min sulolasi, Mo'g'uliston, Oltin O'rda, elchilik, savdo yo'llari.

Abstract: This article analyzes the international relations of the Timurid state during the late 14th and early 15th centuries. It examines the diplomatic, trade, economic, military, and political relations established during the reign of Amir Timur and his successors with Europe (Spain, France, Byzantium), the Middle East (the Ottomans, the Mamluks), the Golden Horde, Moghulistan, and China (the Ming dynasty). Drawing on archival materials and historical sources, the article reveals the specific aspects of Timurid policy in ensuring the security of the Great Silk Road, developing trade relations, and establishing regional stability.

Keywords: Timurids, Amir Timur, international relations, diplomacy, Great Silk Road, Ottomans, Ming dynasty, Moghulistan, Golden Horde, embassies, trade routes.

XIV asrning ikkinchi yarmida Markaziy Osiyoda yirik davlat barpo etgan Amir Temur nafaqat harbiy yurishlari, balki faol tashqi siyosati bilan ham jahon tarixida muhim o'rin tutadi. Uning davlati sharqda Xitoy chegaralaridan g'arbda O'rta yer dengizi sohillarigacha bo'lgan keng hududda siyosiy va iqtisodiy ta'sirga ega edi [1]. Temuriylar davlatining xalqaro aloqalari diplomatiya, harbiy ittifoqlar, savdo-iqtisodiy hamkorlik va madaniy almashinuv kabi bir necha yo'nalishda rivojlandi.

Amir Temur tashqi siyosatida qo'shni davlatlar bilan munosabatlarni tartibga solish, savdo yo'llari xavfsizligini ta'minlash va o'z davlatining xalqaro obro'sini oshirishga alohida e'tibor qaratdi. U nafaqat harbiy kuchga, balki diplomatik muzokaralar va strategik ittifoqlarga ham tayandi [2]. Xususan, Amir Temur Oltin O'rda xoni To'xtamish bilan dastlab ittifoqchilik munosabatlarini o'rnatgan bo'lsa-da, keyinchalik uning xiyonati tufayli uzoq yillik urushlar olib bordi va natijada Oltin O'rdaning qudratini sindirishga muvaffaq bo'ldi [3].

Sharqiy yo'nalishda Temuriylar davlatining asosiy raqiblaridan biri Mo'g'uliston edi. Movarounnahr va Farg'ona vodiysiga doimiy bosqinlar uyushtirib turgan Mo'g'uliston xonlari va dug'lat amirlari Amir Temurning shimoli-sharqiy chegaralarga jiddiy e'tibor qaratishiga sabab bo'ldi [4]. 1371–1389 yillarda Amir Temur Mo'g'ulistonga yetti marta

harbiy yurish uyushtirdi. Ushbu yurishlar natijasida Qamariddin boshchiligidagi qo'shinlar tor-mor etildi, Toshkent vohasi va Farg'ona vodiysi xavfsizligi ta'minlandi. Bundan tashqari, bu yurishlar orqali Amir Temur Buyuk ipak yo'lining Xitoyga boradigan tarmoqlarida tinchlik o'rnatishga erishdi [5].

Amir Temur davrida Xitoyning Min sulolasi bilan munosabatlar murakkab va ziddiyatli bo'lgan. Xitoy manbalariga ko'ra, 1387–1396 yillarda Amir Temur nomidan Pekin (Xonbaliq) shahriga Mavlono Hofiz, Toj ad-Din, Shoxalil, Nig'mat ad-Din, Darvish va Alomat ad-Din boshchiligidagi bir necha bor elchilar yuborilgan [6]. Ushbu elchiliklar orqali ot, tuya va boshqa sovg'alar jo'natilgan, evaziga Xitoydan ipak matolar, chinni va kumush pul olingan. Biroq Min sulolasi an'anaviy "tianzi" (osmon o'g'li) tushunchasiga asoslanib, Temur yuborgan elchilarni "gungshi" (solik to'lovchi) deb hisobladi va ular keltirgan sovg'alarni "gungfu" (soliq) deb qabul qildi [7]. Bu esa Amir Temurning noroziligiga sabab bo'ldi. 1395 va 1397 yillarda Pekindan Bo An va Chen Deven boshchiligidagi Samarqandga kelgan elchilar Amir Temur tomonidan ushlab qolindi [8]. Ushbu diplomatik keskinlik Amir Temurning Xitoyga qarshi harbiy yurishga tayyorgarlik ko'rishiga olib keldi, biroq 1405-yilda uning vafoti bu rejani amalga oshirishga to'sqinlik qildi [9].

G'arbiy yo'nalishda Amir Temur uchun eng muhim raqib Usmoniylar davlati edi. Sulton Boyazid I Yildirim Bolqon va Kichik Osiyoda keng hududlarni egallab, Vizantiya poytaxti Konstantinopolni qamal qilgan edi. Amir Temur va Boyazid o'rtasidagi dastlabki munosabatlar elchiliklar orqali yo'lga qo'yilgan bo'lsa-da, Boyazidning qo'pol va tahdidli javoblari, shuningdek, uning Temur dushmani Qora Yusufga panoh berishi munosabatlarning keskinlashuviga sabab bo'ldi [10]. 1402-yil 20-iyulda Anqara yaqinida bo'lib o'tgan jangda Amir Temur Usmoniylar qo'shinini tor-mor keltirdi, Boyazid asirga olindi. Ushbu g'alaba natijasida Usmoniylarning Yevropaga yurishi 50 yilga to'xtatildi, Vizantiya va Bolqon davlatlari bir muddat nafas oldi [11].

Amir Temurning Usmoniyarga qarshi yurishi Yevropa davlatlarining diqqatini tortdi. Ular Temurda Usmoniylar tahdidiga qarshi kuchli ittifoqchini ko'rdilar. 1402-yilda Ispaniya (Kastiliya) qiroli Genrix III Amir Temur saroyiga elchilar yubordi. 1403–1406 yillarda Rui Gonsales de Klavixo boshchiligidagi elchilik Samarqandda bo'lib, u haqida qimmatli tarixiy ma'lumotlar qoldirgan [12]. Klavixo yozishicha, Amir Temur ispan elchilariga yaxshi munosabatda bo'lgan va ular orqali Genrix III ni "o'zining o'g'li" deb atagan [13]. Fransiya qiroli Karl VI ga ham Temur tomonidan elchilar yuborilgan. 1403-yilda Parijga yetib kelgan elchi orqali Temur Karl VI ga harbiy ittifoq va savdo aloqalarini rivojlantirish taklifini yo'llagan [14]. Bu aloqalar Temuriylar davlatining Yevropa bilan bevosita diplomatik munosabatlar o'rnatganligini ko'rsatadi.

Amir Temur vafotidan keyin uning avlodlari — Shohrux Mirzo va Ulug'bek Mirzo davrida ham xalqaro aloqalar davom ettirildi. Xitoy bilan diplomatik va savdo aloqalari qayta tiklandi. 1415–1440 yillarda Ulug'bek nomidan Xitoyga 22 marta elchilik missiyasi yuborilgan [15]. Shohrux Mirzo davrida G'iyosiddin Naqqosh boshchiligidagi elchilik Xitoyda bo'lib, u sayohati haqida qimmatli ma'lumotlar qoldirgan [16]. Yevropa bilan aloqalar ham davom etdi, garchi Amir Temur davridagi kabi faol bo'lmasa-da, savdo yo'llari orqali iqtisodiy munosabatlar saqlanib qoldi.

Temuriylar davlatining xalqaro aloqalarida savdo-iqtisodiy yo'nalish muhim o'rin tutdi. Amir Temur Buyuk ipak yo'lining xavfsizligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratdi. Uning davrida karvon yo'llaridagi qaroqchilarga qarshi kurash olib borildi, yangi karvonsaroylar barpo etildi [17]. Samarqand, Hirot, Buxoro kabi shaharlar yirik savdo markazlariga aylandi. Temuriylar davlati orqali Xitoydan ipak va chinni, Hindistondan ziravorlar va matolar, Yevropadan kumush va amber, Oltin O'rdadan ot va mo'yna kabi tovarlar olib o'tilgan [18]. Savdo aloqalari nafaqat iqtisodiy manfaat, balki madaniy almashinuvning rivojlanishiga ham xizmat qildi.

Shunday qilib, Temuriylar davlatining xalqaro aloqalari murakkab va ko'p qirrali bo'lib, harbiy kuch, diplomatik mahorat va iqtisodiy manfaatlarni uyg'unlashtirgan holda rivojlantirildi. Amir Temur va uning vorislari Sharq va G'arb o'rtasidagi savdo yo'llarining xavfsizligini ta'minlash, mintaqaviy barqarorlikni o'rnatish va o'z davlatining xalqaro obro'sini mustahkamlashga muvaffaq bo'ldilar. Temuriylar davrida o'rnatilgan diplomatik va savdo aloqalari keyingi asrlarda Markaziy Osiyo va qo'shni mintaqalar o'rtasidagi munosabatlarning rivojlanishiga mustahkam zamin yaratdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. – Toshkent: Sharq, 1996. – B. 45.
2. Karimov S. Markaziy Osiyo tarixida Amir Temur davri. – Samarqand: Sharq, 2015. – B. 67.
3. Ibn Arabshoh. Ajoyib al-maqdur fi tarixi Taymur. – Toshkent, 1992. – B. 112.
4. Usmonov B. Farg'ona vodiysi Amir Temur va Temuriylar davrida. – Farg'ona, 2019. – B. 23.
5. Olimjonov M.K. Mo'g'uliston davlati va Amir Temur munosabatlari. – B. 2-3.
6. Teshayeva G.A. Temuriylar davlatining Yevropa davlatlari bilan aloqalari va elchilik. – B. 2.
7. Xitoy davlatining Markaziy Osiyo bilan munosabatlari (XIV–XV asrlar). – B. 3-4.
8. Xudoyberdiyev A.A. Amir Temurning Min sulolasi bilan munosabatlari. – B. 1.
9. Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. – Toshkent: Sharq, 1997. – B. 380.
10. Teshayeva G.A. Amir Temur va Boyazid Yildirim o'rtasidagi "Anqara jangi". – B. 1-2.
11. Temuriylarning Yevropa bilan aloqalari. – B. 2.
12. Klavixov R.G. Samarqandga sayohat kundaligi. – Toshkent, 1990. – B. 28.
13. Fischel W.J. The Diplomatic Relations between Timur and Europe. – B. 106.
14. Atiya A.S. The Crusade in the Later Middle Ages. – London, 1938. – B. 256.
15. Kobulova S.F. Amir Temur davrida xalqaro munosabat. – B. 4.
16. G'iyosiddin Naqqosh. Xitoyga sayohat kundaligi. – Toshkent, 2001. – B. 15.
17. Temur tuzuklari. – Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti, 1991. – B. 52.
18. Tursunov B. Amir Temur va mintaqaviy savdo yo'llari. – Buxoro, 2017. – B. 34.